

BANK AKTIVLARI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Sharipova Dilfuza Jumaniozovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda tijorat banklari aktivlari tarkibi va tuzilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Har bir bank aktivlarning oqilona tarkibini aniqlash va ularga rioya qilishda muammolarga duch keladi. Aktivlarning oqilona tuzilishini belgilashda banklar likvidlik talablariga javob berishlari kerak, ya'ni ularning muddatlari, turlari miqdorini hisobga olgan holda majburiyatlarga nisbatan yuqori likvidli va kam likvidli mablag'larning etarli miqdoriga ega bo'lishlari kerak.

Aktivlarning sifati ularning likvidligi, xavfli aktivlar hajmi, muhim va past aktivlarning ulushi, daromad keltiradigan aktivlar hajmi bilan belgilanadi. Jahon bank amaliyoti shakllanishi nuqtai nazaridan uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bank aktiv amaliyotlarining shakllanishi ham bevosita bank tizimini rivojlanish jarayoniga bog'liq. Bank ishi tarixiga oid adabiyotlarni tadqiq etish asosida bank tizimining rivojlanish evolyusiyasini beshta bosqichga ajratishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi oldiga yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarga asoslangan hamda alohida banklar va umuman, bank tizimining butun dunyoda qabul qilingan yanada yuksakroq baholash ko'rsatkichlari darajasiga chiqish yo'lidan ilgari siljib borishini xolisona baholash imkonini beradigan tijorat banklari va butun moliya-bank tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy etish, tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash kabi bir qator vazifalar qo'yilgan.

Mamlakatimiz banklari amaliyotida «bank aktivlari samaradorligi» tushunchasi mohiyatini yetarlicha yoritib berilmaganligi oqibatida banklar o'z aktivlari haqiqiy holatini aks ettirishda asosan «aktivlar sifati», «aktivlar likvidligi» bo'yicha talablarnigina bajarilishiga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ayni paytda banklarda xorijiy investorlar tomonidan qiziqish bildirilayotgan aktivlar daromadligi (ROA) ko'rsatkichini yaxshilashga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Respublikamizning iqtisodchi olimlari Sh.A bdullaeva, T. Boboqulov, T. Karaliev, U. Azizov, O. Sattarov, Z. Xolmaxmadov, U. Ortiqov, D. Saidov, I. Qullievlar tomonidan tayyorlangan «Bank ishi» darsligida tijorat banklarining aktivlari o‘ziga xos belgilariga ko‘ra likvidlik va risk darajasiga ko‘ra hamda daromad keltirishiga qarab guruhlariga ajratilgan [1].

Shu bois ushbu tushunchalarning qiyosiy-uslubiy farqlanish jihatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq (1-jadval):

1-jadval

Tijorat banklarida «aktivlar samaradorligi (daromadligi)», «aktivlar sifati», «aktivlar likvidligi» tushunchalarining qiyosiy-uslubiy farqlanish jihatlari

№	Tavsiflovchi jihatlar	Aktivlar samaradorligi (daromadligi)	Aktivlar sifati	Aktivlar likvidligi
1.	<i>Maqsadi</i>	Bankning daromadlik ko‘rsatkichlarini ta‘minlash	Aktivlar bilan bog‘liq risklarni pasaytirish	Bankning o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilishini ta‘minlash
2.	<i>Vazifalari</i>	Joylashtirilgan aktivlarning daromadligini oshirish	Aktivlarning qadsizlanishini oldini olish	Bank majburiyatlarini ta‘minlash imkonini barqaror mablag‘ shakllantirish
3.	<i>Ob‘ekti</i>	Aktivlar hajmi, daromad, xarajat	Aktivlar hajmi	Aktiv va majburiyatlar
4.	<i>Qamrovi</i>	Bankning barcha ko‘rsatkichlari	Barcha aktiv amaliyotlar	Aktivlar, majburiyatlar, kapital
5.	<i>Ta‘minlash usullari</i>	Diversifikatsiyalash, baholash, nazorat	Zahira yaratish, baholash, monitoring o‘tkazish	Farq (GEP), baholash, oqimini tahlil qilish

Ushbu olimlar guruhi tomonidan bankning aktiv operatsiyalari 4ta guruhga: kredit operatsiyalari, investitsiya operatsiyalari, kassa va hisob-kitob operatsiyalari va boshqa aktiv operatsiyalariga ajratib ko‘rsatilgan [2].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan G.G. Korobova, R.A. Karpova, A.F. Ryabova, V.A. Larionova, G.J. Kurduyumov, Ye.A. Nesterenko, S.A. Shulkov kabilar esa bank aktivlarini vazifalari, likvidligi, risk darajasi, joylashtirish muddati va sub‘ektiga qarab tasniflashni taklif etadi [3].

Xorijlik mutaxassislarning fikricha, bank aktivlarining tarkibiy ulushi quyidagi mutanosiblikni tashkil etadi:

- aktiv amaliyotlar tarkibida asosiy o‘rinni kredit mablag‘lari egallaydi (19,90 – 83,25%);
- bank aktivlari tarkibida ikkinchi o‘rinni qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar tashkil etadi (2,15 – 23,87%);
- uchinchi o‘rinda – kassa mablag‘lari (0,2 – 12,94%);
- boshqa aktivlar esa keng miqyosdagi hisob operatsiyalari, kapital aktivlari va asosiy vositalarni qamrab oladi (2,0 – 78,0%) [4].

Respublikamiz tijorat banklarida 2024-yilning ikkinchi choragi yakuni bo‘yicha banklarining jami aktivlari hajmi 690,4 trln. so‘mga yetdi va 2023-yilning ikkinchi choragi bilan taqqoslaganda qariyb 113,7 trln. so‘mga (19,7 foizga), joriy yilning birinchi choragi bilan taqqoslaganda esa, qariyb 25 trln. so‘mga (3,7 foizga) oshdi. Davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarning jami aktivlardagi ulushi o‘tgan yilning 1-iyul holatiga ko‘ra 69 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda 2 foiz bandga (67 foiz) qisqargan, shuningdek, 2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kredit qo‘yilmalari hajmi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 70 trln. so‘mga oshdi va 493,9 trln. so‘mga yetdi. Umumiy kredit portfelida xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklar tomonidan ajratilgan kreditlar ulushi o‘tgan yilning mos davridagi 27 foizdan qariyb 3 foiz bandga o‘sib, 30 foizgacha oshgan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud bo‘lgan top-5 ta bankning jami kreditlar portfelidagi ulushi 59,4 foizdan 57,8 foizga tushgan [5].

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini ta‘minlashda aktivlarni joylashtirish borasida tarkibiy tuzilmalar faoliyatiga talablarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda banklar oldiga bank Kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisi va a‘zolari, ichki audit bo‘limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfelli, daromadlilik va likvidlilik ko‘rsatkichlari holati bo‘yicha hisobotlarini muntazam ravishda har chorakda ko‘rib chiqish va ta‘sirchan choralar belgilab amalga oshirish amaliyotidan keng foydalanish vazifasi qo‘yildi. Bundan tashqari, aktivlarni diversifikatsiya qilish, kredit portfelini yaxshilash, tavakkalchiliklarni samarali boshqarishni nazorat qilish maqsadida har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo‘ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo‘mitalari tashkil etildi. Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirishning iqtisodiy masalalari bank aktivlarini maqbul joylashtirish va doimiy monitoringini amalga oshirish jarayoniga qat‘iy talablarni belgilashni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

- bank aktivlarini joylashtirishning dastlabki bosqichlarida qarzdorlarning to‘lovga qobiliyatini kompleks tahlil qilish mexanizmini joriy etish;

- banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sog‘lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ularga zarur o‘zgartirishlar kiritib borish;
- bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta’sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog‘liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;
- salohiyatli mijozlarga yangi va zamonaviy bank xizmatlari turlarini taklif etish orqali aktivlar hajmini oshirib borish, bu kabi mijozlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish.

Tijorat banklari aktivlari bilan bog‘liq amaliyotlar samaradorligini oshirish muhim makro va mikroiqtsodiy ahamiyatga ega masalalar qatoriga kiradi.

Fikrimizcha, tijorat banklarida aktiv amaliyotlari samaradorligini ta’minlash uslubiyoti bir qator muhim prinsiplarga asoslanishi lozim.

Aktiv amaliyotlarning daromadlikka yo‘naltirilganligi. Tijorat banking strategik maqsadi har bir aktiv amaliyotdan maksimal darajada foyda olish hisoblanadi. Chunki aktiv amaliyotlarni shakllanishida bir qator xarajatlar sarflanadi.

Tadbirlarning oqilona muvofiqlashtirilishi. Bank aktiv amaliyotlari samaradorligini ta’minlash elementlarining serqirraligi hamda turli bank bo‘linmalari majburiyatlari bilan uyg‘unlashganligi rahbariyatdan mas’ul bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirishni talab etadi.

Tahlil ma’lumotlarining ishonchliligi. Bank aktivlari samaradorligini baholashda ichki va tashqi manbalardan ishonchli va yetarli ma’lumotlar olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi manba ma’lumotlari aktivlarni samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda, ichki manba ma’lumotlari aktivlarni boshqarishning ichki siyosatlari talablarini bajarilishini baholashga xizmat qiladi. Ayniqsa, aktivlar sifatini tasniflash bo‘yicha ma’lumotlarning buzib ko‘rsatilishi bank mablag‘larini yo‘qotish xavfini oshishiga olib keladi.

Bank likvidligini ta’minlanishi. Aktiv amaliyotlar hajmini oshirilishi, o‘z navbatida, bank likvidligini ta’minlovchi resurslarni chetlanishiga olib keladi. Shu bois tijorat banklari aktiv amaliyotlarni shakllantirish jarayonida muntazam ravishda likvidlik talablariga rioya etishlari zarur.

Likvidlilik darajasi bo‘yicha aktivlar 3 ta asosiy guruhga bo‘linadi: 1. Yuqori likvidli aktivlar, 2. Likvidli aktivlar, 3. Past likvidli aktivlar. Past likvidli aktivlarga – qiyinchilik bilan pulga aylanadigan aktivlar, bularga: uzoq muddatli kreditlar, investitsiyalar, qiyin sotaladigan bino va inshootlar va muddati o‘tgan qarzar kiradi.

Aktiv amaliyotlar sifati nazoratining to'g'ri tashkil qilinishi. Tijorat banklarida aktiv amaliyotlarning yuqori riskka beriluvchan ekanligi, shuningdek, mijozlar faoliyatidagi keskin o'zgarishlar aktivlarni muammoga aylanish xavfini yuzaga keltiradi. Bu holat aktivlar amaliyotlar ustidan riskka asoslangan nazoratni to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Bank ishini yuritishning xorij tajribasini tadqiq etish orqali bank aktiv amaliyotlari samaradorligini baholash chora-tadbirlari, usul va vositalari hamda yondashuvlarini tizimlashtirish bo'yicha tadqiqotlar dissertatsiya ishining keyingi paragrafida bayon etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаева Ш. Банк иши (дарслик).-Т.: ТМИ, 2003.-312 б. (131-135-бетлар); У.Азизов ва бошқалар. Банк иши (дарслик).-Т.: Иқтисод-молия, 2016.-768 б. (178-168-бетлар).
2. У. Азизов ва бошқалар. Банк иши (дарслик).-Т.: Иқтисод-молия, 2016.-768 б. (175-бет).
3. Коробова и др. Банковское дело. Учебник.-М.: Экономист, 2006.-766 с. (132-143-бетлар).
4. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. -М.: Финансы и статистика, 2005.-672 с. (72-бет).
5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг <http://cbu.uz> расмий сайти маълумотлари.